

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

ABDULXAKIMOV SIROJIDDIN NURBOY O‘G‘LI

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARDAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li

Kichik biznes subyektlarida innovatsiyalardan foydalanishni
takomillashtirish..... 3

Абдулхакимов Сирожиддин Нурбой угли

Совершенствование использования инноваций в субъектах малого
бизнеса..... 25

Abdulkhakimov Sirojiddin Nurboy ugli

Improving the use of innovations in small business entities..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

ABDULXAKIMOV SIROJIDDIN NURBOY O‘G‘LI

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARDAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PhD/Iqt871 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Tuxliyev Nurislom Akademik, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Aripov Oybek Abdullayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___”_____soat__:_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49.Tel.: (99871) 239-28-72; faks:(99871) 239-43-51; e-mail:tdu@tdiu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (___raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.:(99871)239-28-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___”_____kuni tarqatildi.
(2024-yil “___”_____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.D. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, PhD, dotsent v.b.

R.X. Karlibayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy taraqqiyotning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Innovatsion iqtisodiyotga o'tishning izchil va barqaror omili sifatida kichik biznes alohida o'rin tutmoqda. "Turli baholarga ko'ra, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishidagi qo'shimcha o'sishning 75 dan 90 foizga qadar qismi aynan innovatsiyalardan foydalanish hisobiga ta'minlanmoqda. Buning ustiga, iqtisodiy inqirozga yuz tutgan mintaqalardagi ishlab chiqarishni jonlantirish innovatsion jarayonlarni faollashtirish hisobiga ro'y beradi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, innovatsion biznesning tashkil topishi va rivojlanishida kichik korxonalar ahamiyatli rol o'ynaydi. Yirik sanoat korxonalariga nisbatan davlatga soliq tushumi bo'yicha sezilarli darajada ortda qolsa ham, yangi texnologik ishlanmalarning rivojlanishi amalda kichik biznesning faol ishtirokisiz mumkin emas"¹. Shunga ko'ra, innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishidagi tendensiyalar va tarkibiy o'zgarishlarning maqsadga muvofiq yo'naltirilishini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kichik innovatsion biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini e'tiborga olgan holda uning iqtisodiy salohiyatidan to'la va samarali foydalanish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanish imkoniyatlari, innovatsion shaklda xo'jalik yuritish tizimi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, kichik innovatsion biznes subyektlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, kichik biznes subyektlari tomonidan innovatsiyalarni o'zlashtirish va innovatsion texnologiyalarni ayirboshlash muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. "...Kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan"². O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi loyihasiga muvofiq "KBXTni rivojlantirishning maqsadi mamlakat aholisining umumiy daromadlaridagi tadbirkorlik ulushini 70 foizga etkazish hisoblanadi". Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatda kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion omillardan foydalanishni yanada takomillashtirish, faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan kichik biznes

¹ Гусев А.К., Жеребцов В.И. Малый бизнес и инновации: основные проблемы и пути решения. - <https://cyberleninka.ru/article/n/malyu-biznes-i-innovatsii-osnovnye-problemy-i-puti-resheniya>

² Тadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga kўtariш – ustuvor vazifamizdir. /Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тadbirkorлари билан очик мулоқот шаклида ўтказилган учрашувдаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/6561>

korxonalarini aniqlash asosida ilm-fan yutuqlariga, texnologiyalar transferi va ratsionalizatorlik takliflariga asoslangan holda o‘zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish yo‘llarini asoslash, yirik va o‘rta korxonalar hamda markaziy hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik innovatsion korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan jarayoni yoki qismini kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish orqali mamlakatda innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyani joriy etishga mas’ul idora va tashkilotlar tomonidan xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o‘tgan kichik ko‘lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion korxonalariga joriy etishni ta’minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, innovatsion jarayonlarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta’sirining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida», 2019-yil 14-maydagi PF-5718-son «Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son «Har bir oila – tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida», 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri, innovatsion jarayonlarni kichik biznes subyektlari faoliyatiga tatbiq etish, kichik innovatsion biznesning iqtisodiy salohiyatini aniqlashga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar uzoq xorijlik S. Badal, A.S. Kritikos, R. Nallari, O.J. Ademola, I. Hazavey, R.Ye. Litan, T. Mikkiyvisz, F.V. Nyakudya,

J. Valter, V. Dobes, J. Nevbert, N. Boso, M. Uddin kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan³.

Yaqin xorij mamlakatlaridan kichik innovatsion biznesni tashkil etish, innovatsion biznes faoliyati samaradorligini baholash, innovatsion biznesni rivojlantirishning barqarorligini ta'minlash, davlat tomonidan kichik innovatsion biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalari S.N.Yashin, Yu.V.Zaxarova, Yu.S.Soldatova, V.V.Krakovich, Yu.N.Nesterenko, S.L.Parfenova, I.N.Vaveleva, N.S.Somenkova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan⁴.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Yo.Abdullayev, G.K.Abduraxmonova, H.P.Abulqosimov, F.Karimov, M.R.Boltabayev, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjayeva, U.V.G'afurov, B.K. G'oyibnazarov, A.N.Samadov, R.Xodjayev, A.A.Qulmatov, S.Sh.To'rabekov, M.M.Muxammedov, N.K.Murodova, D.T.Yuldashev va boshqa mutaxassislarining ilmiy ishlarida kichik biznesning mamlakatimizda rivojlanish xususiyatlari, uning iqtisodiyotimizda tutgan o'rni, kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish, sohada aholi bandligini ta'minlash, kichik biznesni moliyalashtirish amaliyoti, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan⁵. Shu bilan birgalikda, innovatsiyalar jarayonida

³ Nallari, R., et al. (2010). A Primer on Policies for Jobs. The World Bank.; Ademola, O.J. (2014). Working capital management and profitability of selected quoted food and beverages manufacturing firms in Nigeria. //European Journal of Accounting Auditing and Finance Research, 2(3). 10-21.; Mickiewicz, T., Nyakudya, F.W., Theodorakopoulos, N. et al. Resource endowment and opportunity cost effects along the stages of entrepreneurship. Small Bus Econ 48, 953–976 (2017).; Franz Kellermanns, Jorge Walter, T. Russell Crook, Benedict Kemmerer & Vadake Narayanan (2016) The Resource-Based View in Entrepreneurship: A Content-Analytical Comparison of Researchers' and Entrepreneurs' Views, Journal of Small Business Management, 54:1, 26-48.; Dobes, V., Fresner, J., Krenn, C., Rinaldi, C., Cortesi, S., et al. Analysis and exploitation of resource efficiency potentials in industrial small and medium-sized enterprises – Experiences with the EDIT Value Tool in Central Europe. Journal of Cleaner Production. Volume 159, 15 August 2017, Pages 290-300; Rawhouser, H., Villanueva, J., Newbert, S.L. Strategies and Tools for Entrepreneurial Resource Access: A Cross-disciplinary Review and Typology. International Journal of Management Reviews. Apr 21, 2016; Boso, N., Danso, C., Leonidou, A., Uddin, M. Does financial resource slack drive sustainability expenditure in developing economy small and medium-sized enterprises? Journal of Business Research. Volume 80, November 2017, Pages 247256; Human Resource Strategies and Sustainability in Small Businesses by Christopher M. Rice Doctoral Study Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Business Administration Walden University December 2018.

⁴ Яшин С.Н., Амбацумян А.Э., Кулыгина Е.Н. Некоторые подходы к оценке эффективности инновационных разработок промышленных предприятий Нижегородской области. //Экономика и предпринимательство. – 2015. – № 6-1. – с. 363-366; Захарова Ю.В., Купцов А.В., Кулыгина Е.Н. Анализ реализации инновационной деятельности в Нижегородской области. //Экономика и предпринимательство. – 2016. – № 8. – с. 188-190; Яшин С.Н., Солдатова Ю.С. Оценка устойчивости инновационного развития предприятий. //Финансы и кредит. – 2012. – № 32. – с. 9-17.; Кракович В.В. Интегрированное управление ресурсами малого инновационного предприятия в условиях экономической неопределенности: диссертация кандидата экон. наук. – Санкт-Петербург, 2018.; Нестеренко Ю.Н. Развитие малых инновационных предприятий промышленности России: автореферат диссертации д-ра экон. наук. – М.: 2008.; Парфенова С.Л., Грибовский А.В. Подход к оценке эффективности государственной поддержки малых инновационных предприятий в России. //Наука. Инновации. Образование, 2016. – № 4.; Савельева И.Н. Развитие малого инновационного предпринимательства в промышленности: автореферат диссертации кандидата экон. наук. – Екатеринбург, 2011.; Соменкова Н.С. Совершенствование методики оценки эффективности инновационного развития предприятия. / Российское предпринимательство, 2017. – № 6. – DOI: 10.18334/рп.18.6.37657.

⁵ Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тadbirkorлик асослари. – Т.: Мехнат, 2010. — 349 б.; Болтабаев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Ғойибназаров Б.К., Самадов А.Н., Ходжаев Р. Кичик бизнес ва тadbirkorлик: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 275 б.; Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тadbirkorликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.; Тўрабеков С.Ш., Мухаммедов М.М. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ривожлантириш истикболлари. // Иқтисод ва молия. 2016, №2. 33-38-б.; Абдурахмонова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат таъминлаши асосида иш

kichik biznesni rivojlantirish, kichik innovatsion biznes faoliyatini tashkil etish, innovatsion biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dastklariga bag'ishlangan nazariy-amaliy masalalar kompleks tarzda, tizimli, maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishidagi tendensiyalarni aniqlash, kichik innovatsion biznes faoliyati samaradorligini baholash, davlat tomonidan kichik biznesni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va ularni amalga oshirish yo'nalishlarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotda yetarlicha o'rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish zarurligini asoslash va nazariy tadqiq etish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlanish tamoyillari, xususiyatlari va amal qilish mexanizmini tahlil etish;

kichik biznes va va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning xorij tajribasini qiyosiy tahlil qilish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanish holati, tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlarini tahlil etish;

kichik biznes subyektlari innovatsion faolligining milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirini baholash;

kichik biznes subyektlari innovatsion faolligining yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish miqdoriga ta'sirini uzoq muddatli davr uchun prognozlarlashtirish.

Tadqiqotning obekti sifatida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

билан таъминлашни такомиллаштириш. дис. ... и.ф.д. – Т. 2016.; Муродова Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш: дис. ... и.ф.д. – Т. 2016; Юлдашев Д.Т. Оилавий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш: дис ... и.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD). – Т., 2019.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, korrelyatsion-regression tahlil, iqtisodiy prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududdagi kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga mas'ul idoralar tomonidan faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan kichik biznes korxonalarini aniqlash asosida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o'sish nuqtalaridan kelib chiqib, ilm-fan yutuqlariga, texnologiyalar transferi va ratsionalizatorlik takliflariga asoslangan holda o'zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish yo'llari asoslangan;

yirik va o'rta korxonalar hamda markaziy hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik innovatsion korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan jarayoni yoki qismini kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish orqali mamlakatda innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish taklifi asoslangan;

innovatsiyani joriy etishga mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o'tgan kichik ko'lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion korxonalariga joriy etishni ta'minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sirining ko'p omilli korrelyatsion modellari asosida soha rivojlanishining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining mohiyati an'anaviy va innovatsion rivojlanish nuqtai nazaridan ochib berilgan;

kichik innovatsion tadbirkorlik mohiyati tavsiflangan, bozor munosabatlari rivojlanishi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga joriy etish zaruriyati asoslangan;

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining holati, rivojlanishining hududiy va tarmoq xususiyatlari bilan bog'liq tarkibiy siljishlar aniqlangan;

kichik biznes va va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning xorij tajribasidan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kichik biznes subyektlari innovatsion faolligini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada keltirilgan xulosa va tavsiyalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi amaliyotida mualliflik taklif va tavsiyalarining joriy qilinganligi, qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

statistika agentligi rasmiy ma'lumotlaridan, xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma'lumotlari va hisobotlaridan foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsion faollikni oshirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga tatbiq etilishi, palata tomonidan kichik biznes subyektlari innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini, jumladan, kichik biznes subyektlari innovatsion faolligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsiyalar jarayonida kichik biznesni rivojlantirish yo'nalishlari borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

hududdagi kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga mas'ul idoralar tomonidan faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan kichik biznes korxonalarini aniqlash asosida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o'sish nuqtalaridan kelib chiqib, ilm-fan yutuqlariga, texnologiyalar transferi va ratsionalizatorlik takliflariga asoslangan holda o'zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qaroriga 1-ilova "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda o'zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish orqali innovatsion rivojlanishni ta'minlash imkoni yaratilgan;

yirik va o'rta korxonalar hamda markaziy hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik innovatsion korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan jarayoni yoki qismini kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish orqali mamlakatda innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qaroriga 1-ilova "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatning olis aholi punktlarida innovatsion ishlab chiqarishni shakllantirish hamda kichik biznes korxonalarini faoliyatini jadal rivojlantirish imkoni yaratilgan;

innovatsiyani joriy etishga mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o'tgan kichik ko'lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion

korxonalariga joriy etishni ta'minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qaroriga 1-ilova "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o'tgan kichik ko'lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion korxonalariga joriy etishni ta'minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali innovatsion rivojlanishni ta'minlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sirining ko'p omilli korrelyatsion modellari asosida soha rivojlanishining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan mamlakatdagi kichik innovatsion korxonalarini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakat hududlari bo'yicha kichik innovatsion korxonalar faoliyati asosiy ko'rsatkichlarini uzoq muddatli istiqbolda o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kichik biznesdagi innovatsion tamoyillar va tizimli o'zgarishlarning nazariy-konseptual jihatlari**" deb nomlangan birinchi bobida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasiga an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning nazariy-uslubiy asoslari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

innovatsion rivojlantirish xususiyatlari, kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning xorij tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari tadqiq etilgan.

“Tadbirkorlik” tushunchasining mohiyatini yoritib berishga xizmat qiluvchi iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi tahlili ushbu qarashlarni quyidagi ikki guruhga ajratish imkonini beradi. Birinchi guruh – tadbirkorlik subyekti tasarrufida mavjud resurslardan maksimal daromad olishga qaratilgan klassik tadbirkorlik. Tadbirkorlikning aynan klassik modelida ishlab chiqarishning o‘shish konsepsiyasi shakllantiriladi, uning amaliyotga tatbiq etilishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Ikkinchi guruh – rivojlanishning yangi yo‘llarini nazarda tutuvchi, innovatsiyalar yoki o‘shish konsepsiyasi haqida fikr yuritishga imkon beruvchi innovatsion tadbirkorlik. Innovatsion tadbirkorlik butunlay innovatsiyaga asoslangan, shuning uchun bunday faoliyat natijasi yangi mahsulot yoki yangi texnologiyalar bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni tadqiq etishga yo‘naltirilgan qator ilmiy izlanishlarda innovatsion faoliyatga ustuvorlik berish bilan bog‘liq ilmiy xulosalar muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy xususiyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish jarayonlarini o‘zida aks ettiradi. Tadqiqotlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayoni bozor omillari bilan bog‘liqligi qayd etilgan. Natijaviy jarayon sifatida tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning bozor faoliyati tadqiq etilmagan (1-jadval).

Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy kategoriya bo‘lib, “xo‘jalik yuritish usuli sifatida tadbirkorning tashkilotchilik xususiyatlari bilan bog‘liq holda korxonada faoliyatiga yangiliklarni joriy etish orqali ishlab chiqarish omillarining o‘zaro maqbul kombinatsiyasini qo‘llash yordamida yuqori daromadga ega bo‘lishga qaratilgan tashabbusli, innovatsion faoliyat turidir”.

XX asrning 80-yillaridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion usulda rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berildi. Natijada “kichik innovatsion tadbirkorlik” tushunchasi iqtisodiy adabiyotga kirib keldi. Lekin, hali hanuz ushbu iqtisodiy atamaga yagona, umum qabul qilingan tarif ishlab chiqilmagan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, “kichik innovatsion tadbirkorlik” faoliyatining “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik”dan farqli, o‘ziga xos muhim jihati uning innovatsion faoliyati yo‘nalishi maqsadidan kelib chiqqan holda belgilangan vazifalari bilan tavsiflanadi. Bunda kichik innovatsion tadbirkorlik faoliyati orqali tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvning mavjudligi, ishlab chiqarish jarayonlarida yangi texnika va texnologiyalarni tatbiq etishga intilishning yuqori darajada ekanligi, pirovard natijada ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishga erishish, shu bilan bir qatorda tegishli soha va iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlanmalar, g‘oyalar va mahsulotlar turining ko‘payishiga erishiladi. Kichik innovatsion tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi o‘z o‘rnida kichik innovatsion hududlar, jumladan,

innovatsion shaharlar, innovatsion tumanlar, innovatsion tarmoqlar va innovatsion viloyatlarning shakllanishi uchun qulay bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi⁶.

1-jadval

Milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar transformatsiyasi⁷

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishi
-tadbirkorlik iqtisodiy kategoriya bo‘lib, iqtisodiy xulq-atvor, u tavakkalchilik bilan bog‘liq faoliyat turidir (Richard Kantilyon)	-tadbirkorlik qiymatga ega bo‘lgan yangi narsani yaratish jarayoni bo‘lib, tadbirkor tavakkalchilikni zimmasiga oluvchidir (R.Xizrich)
-tadbirkorlik foyda olish maqsadidagi iqtisodiy tavakkalchilikdir, ishlab chiqarishni rejalashtirish, tashkil qilish va natijalarini tasarruf etish jarayonidir (Adam Smit)	-tadbirkorlik innovatsiyani boshqarish jarayoni, tadbirkor bor imkoniyatidan maksimal foydalanuvchi shaxs, ular innovatsiya yordamida yangi xizmatlar va biznes turini yaratadi (P. Druker)
-tadbirkorlik ishlab chiqarish jarayonida boshqalar faoliyatini tashkil etishdir (J.B.Sey)	-tadbirkorlik yaratuvchanlik, yangilikni izlash demakdir. Tadbirkorlik qobiliyati innovatsion iqtisodiy tizim rivojiga ta’sir etuvchi muhim omil (Y. Shumpeter)
-tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari orasida innovatsion faoliyatga ustivorlik berish (S.Jose, D.Maurisio)	-zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslangan innovatsion tadbirkorlik kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning yangi usuli (A.G.Kiryakov, V.A.Maksimov)
-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanishida boshqaruv tizimining o‘rni muhim ahamiyatga ega (A.Oosthuizen, J.Van Vuuren, M.Botha)	-tadbirkorlikni rivojlantirishning axborot oqimi va innovatsion asoslari o‘rtasida integral aloqadorlik mavjud (E.A.Gasanov)
-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoq jihatidan ixtisoslashuv jarayonlari samaradorligini oshirish innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq (Q.B.Sharipov, A.B. Qurbonov, I.A.Bakiyeva)	-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kelajakdagi innovatsion modellarini shakllantirish strategiyasiga ustuvorlik berish (T.T.Jo‘rayev, R.A.Kalandarov)
-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ish bilan bandlikning zamonaviy innovatsion shakllarini rivojlantirish (G.K.Abduraxmonova)	-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishda biznes muhit, marketing va klasterlarning ahamiyati (Sh.Sh.Boltayev, A.A.Raxmatov)
-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion boshqaruv tamoyillarida asosiy ustuvorlik mahsulotlar assortimenti, ishlab chiqarishni rivojlantirishning strategik imkoniyatlari va kengaytirish rejasi bilan bog‘liq (A.Abdullayev, Q.Muftaydinov, X.Aybeshov)	-tadbirkorlik xo‘jalik yuritish usuli sifatida tadbirkorlikning tashkilotchilik xususiyatlari bilan bog‘liq holda korxonaga yangiliklarni joriy etish orqali ishlab chiqarish omillarining o‘zaro maqbul kombinatsiyasini qo‘llash yordamida yuqori daromadga ega bo‘lish maqsadida tashabbusli innovatsion faoliyat turidir (muallif ta’rifi)

⁶ Малое инновационное предпринимательство: Кейсы Российских компаний / Д.С. Андреюк и др. Под. ред. Д.С. Медовникова. – М.: МАКС Пресс, 2013. – 196 с.

⁷ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kichik innovatsion biznesning rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

birinchidan, jamiyatning ijtimoiy tarkibi – jamiyat tarkibida oliy ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolarning ko'payishi, iste'molchilarning innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talablarining ortishida o'z aksini topadi. Bunda jamiyat a'zolarining innovatsion jarayonlarga bo'lgan qiziqishi, intilishi va moyilligi yuqori darajada bo'ladi;

ikkinchidan, moslashuvchanlik qobiliyati – bu kichik biznes vakillarining innovatsion jarayonlarga tezda moslashishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi davrining qisqa muddatlarda bo'lishini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy tarkibi bilan uzviy bog'liq omil hisoblanadi;

uchinchidan, ilmiy-texnik ixtisoslashuv – ya'ni kichik biznes vakillarining innovatsion jarayonlarning u yoki bu turiga chuqur ixtisoslashuvini anglatadi. Bunda oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etilgan texnoparklar, ilmiy tadqiqot institutlari va mamlakatda ilmiy tadqiqot-tajriba va konstruktorlik ishlanmalarining qaysi sohada yuqori darajada ishlab chiqilishi, innovatsion tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va kadrlarning mutaxassisliklaridan kelib chiqqan holda, kichik innovatsion biznes vakillarining ilmiy-texnik ixtisoslashuvi yo'nalishlari aniqlab beriladi. Ushbu omilni yuqoridagi ikki omilning mahsuli sifatida qarash mumkin;

to'rtinchidan, iqtisodiy munosabatlarning harakatlanish inersiyasi – bunda mamlakatdagi iqtisodiy munosabatlar tizimida innovatsiyalarga bo'lgan ishonch va talabning yuqori darajada bo'lishi oqibatida kichik innovatsion biznesning iqtisodiyotni rivojlantiruvchi omilga aylanishi nazarda tutiladi.

Fikrimizcha, kichik innovatsion biznes – bu iqtisodiy kategoriya sifatida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha shaklda xo'jalik faoliyati yuritayotgan, mustaqil hisoblangan, o'ta moslashuvchan kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanib, ularning ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishdagi intilishining yuqoriligi va bu boradagi axborotlar bilan to'liq tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan, innovatsiyalarni o'zlashtiruvchi va ixtiro qiluvchi iqtisodiy subektlari hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy rivojlanish xususiyati sifatida hozirda innovatsion kichik biznesni rivojlantirish borasida taraqqiy etgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan maqsadli dasturlar va ularning natijalari to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Avvalo, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlik rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlari tahliliga e'tiborni qaratish zarur. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, mikro, kichik va o'rta biznes korxonalarini hissasiga jami band aholining 50 foizi to'g'ri keladi⁸. Ushbu korxonalar ekologiya, energiya samaradorligi, tiklanadigan energiya va qurilish sohalarida COVID-19 inqirozi ta'siriga qadar innovatsion, "yashil" va barqaror rivojlanish tashabbuslarini amalga oshirish darajasiga erishganligi ta'kidlanmoqda⁹.

⁸ <https://www.clustercollaboration.eu/achievements/spain-learnings-and-opportunities-covid19-crisis>

⁹ <http://www.oecd.org/coronavirus/policy-responses/coronavirus-covid-19-sme-policy-responses04440101/#section-d1e167>

Ayrim bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan va shakllanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi, tez sur'atlarda jadal rivojlanayotgan Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda kichik innovatsion tadbirkorlikning yalpi sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 2000-yillarning boshlarida 60 foizdan yuqori ko'rsatkichga ega edi.¹⁰ Kichik innovatsion biznes rivojlanishining jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar jarayonida ushbu turdagi iqtisodiy subektlarning ishtiroki yuqori darajada bo'lib, innovatsiyalarning aksariyat qismi ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, AQSh iqtisodiyotida kichik biznes vakillari tomonidan yirik korporatsiyalarga nisbatan 13-marta ko'p bo'lgan hajmdagi patentlar va innovatsion ishlanmalar ishlab chiqiladi.¹¹

Dissertatsiyaning **“Kichik biznes tarmoq va hududiy tarkibining takomillashuvida innovatsion omillarning roli”** deb nomlangan ikkinchi bobida kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tarkibiy siljishlar va hududiy o'zgarishlarning sohadagi innovatsion faollikka ta'siri tadqiq etilgan.

2-jadval

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion resurslardan foydalanish holati¹²

Ko'rsatkichlar	Yillar				2022-yilda 2015-yilga nisbatan o'zgarish	
	2015	2020	2021	2022	farqi	foizda
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va firmalar soni, mingta	201,6	373,0	437,0	493,2	+291,6	+244,5
Joriy qilingan innovatsiyalar, birlik	884	3535	2974	1635	+751	+185,0
Ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar, mlrd. so'm	1681,8	14129,1	10667	11470,1	+9788,3	+682,3
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x
Shundan:						
korxonaning o'z mablag'lari	89,7	68,8	73,8	62,1	-27,6	x
chet el investitsiyalari	1,7	7,6	8,2	7,6	+5,9	x
tijorat banklarining kreditlari	7,0	16,4	14,3	27,6	+20,6	x
boshqa mablag'lar	1,6	7,2	3,7	2,7	+1,1	x


Mamlakatimiz kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarini baholash orqali innovatsion salohiyatdan foydalanish darajasi tahlilini amalga oshirish mumkin. Tahlillar ko'rsatishicha, 2015-2022-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalarida mikrofirmalar soni 2,4 martaga ortgani holda, ular tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar soni 1,8 martaga ko'paygan. Mazkur iqtisodiy subyektlar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion

¹⁰ Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса – <https://www.riep.ru>

¹¹ Основные направления политики администрации США в сфере малого и среднего бизнеса – <https://rustradeusa.org/Attach-ment.aspx?id=319>

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi 6,8 martaga, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar esa qariyb 3,0 martaga oshgan. Xususan, 2022-yilda innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish manbalari tarkibida korxonaning o'z mablag'lari katta salmoqqa (62,1%) ega bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda kichik biznes korxonalarini tomonidan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Jumladan, 2015-2022-yillarda ushbu sohaga sarflanayotgan mablag'lar tarkibida korxonalar o'z mablag'lari ulushi 89,7 foizdan 62,1 foizga qisqargani holda, chet el investitsiyalari ulushi 1,7 foizdan 7,6 foizga, tijorat banklari kreditlari 7,0 foizdan 27,6 foizga, boshqa mablag'lar ulushi esa 1,6 foizdan 2,7 foizgacha o'sganligini kuzatish mumkin (2-jadval).



1-rasm. Kichik biznes subyektlarining innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari¹³

Mamlakatimizda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ta'siri o'laroq kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligi oshib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda ushbu faoliyatning susayishiga sabab bo'layotgan COVID-19 sanitar inqirozi, Rossiya-Ukraina munosabatlari bilan bog'liq xalqaro iqtisodiy sanksiyalar kabi tashqi omillar ta'sirini e'tiborga olish zarur. Tahlillar ko'rsatishicha, 2015-2020-yillarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlari soni 2036 nafardan 6639 nafarga (3,3-marta) oshgani holda 2021-2022-yillarda ularning soni mos ravishda 1038 va 1224 nafarga qadar qisqargan. Natijada innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi bir nafar kichik biznes subyektiga to'g'ri keluvchi innovatsiyalar soni 2015-2020-yillarda 4 tadan 10 tagacha oshgani holda 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1,3 tagacha kamaygan. Bir nafar kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar miqdori esa

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2015-2022-yillarda 8,6 mln. soʻmdan 42,2 mln. soʻmga oshgan boʻlsa, 2022-yilda ushbu koʻrsatkich 24,8 mln. soʻmga tenglashdi (1-rasm).

Kichik biznes rivojlanishida innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishni taʼminlashning muhim yoʻnalishlaridan biri mamlakat hududlari boʻylab innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish hisoblanadi. Respublika boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faollik darajasi¹⁴ 2016-2020 yillarda 1,0 foizdan 1,8 foizga qadar oshgani holda yuqorida qayd etib oʻtilgan omillar taʼsirida 2021-2022-yillarda 0,25 foizlik koʻrsatkichni qayd etdi (3-jadval).

3-jadval

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faollik darajasi, foiz hisobida¹⁵


	Yillar						
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Oʻzbekiston Respublikasi	1,0	0,9	1,3	1,9	1,8	0,25	0,25
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	1,1	0,6	0,6	0,4	0,6	0,05	0,05
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	0,2	0,4	0,4	0,5	0,5	0,04	0,05
Buxoro	0,9	0,8	1,4	1	1,2	0,13	0,14
Jizzax	0,8	0,6	0,5	0,9	0,7	0,18	0,20
Qashqadaryo	0,2	0,1	0,5	0,7	0,8	0,14	0,14
Navoiy	1,8	2,5	3,8	4,8	2,4	1,04	1,02
Namangan	0,7	1,1	1,2	0,9	1,5	0,08	0,10
Samarqand	1,9	0,2	1,4	0,9	1,6	0,12	0,13
Surxondaryo	2,2	1,7	1,9	1,6	2,4	0,47	0,48
Sirdaryo	2,3	1,8	2,4	3,2	1,8	0,54	0,62
Toshkent	0,8	0,8	1,6	1,3	2,8	0,26	0,28
Fargʻona	1,5	2,2	2,3	1,6	2,1	0,26	0,26
Xorazm	1	0,3	0,5	0,5	0,4	0,09	0,12
